



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 356 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
<i>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</i>	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
<i>Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</i>	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
<i>Adilova Zulfiya Djavdatovna</i>	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
<i>Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</i>	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
<i>Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
<i>Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</i>	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
<i>Aripova Sayida Abdullaxatovna</i>	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
<i>Rasuljon Atamuratov</i>	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
<i>Azizova Shodiya Utkur qizi</i>	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
<i>Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</i>	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
<i>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</i>	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
<i>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</i>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
<i>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</i>	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi	242
<i>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
<i>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</i>	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
<i>Umirova Guldon Jamoliddin qizi</i>	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
<i>Ungalov Akmal Navruzovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
<i>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</i>	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
<i>Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</i>	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
<i>Yuldasheva Mastura Islamovna</i>	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
<i>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</i>	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
<i>Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
<i>Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</i>	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlar va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	



OTM TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi
TDIU, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tanqidiy fikrlashning mazmuni, ahamiyati hamda uni samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Muallif talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar haqida ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim muassasasi, talabalar, ta'lim, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar.

Abstract: This article explores the issues of developing critical thinking competencies among students of higher education institutions. It analyzes the essence and importance of critical thinking, as well as the organizational and pedagogical conditions required for its effective enhancement. The author presents scientifically grounded conclusions regarding pedagogical approaches and innovative methods that facilitate the formation of critical thinking skills in students.

Key words: critical thinking, higher education institutions, students, education, pedagogical conditions, interactive methods.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования и развития критического мышления у студентов высших учебных заведений. Анализируются содержание и значение критического мышления, а также организационно-педагогические условия, необходимые для его эффективного развития. Автор представляет научно обоснованные выводы о педагогических подходах и инновационных методах, способствующих формированию критического мышления у студентов.

Ключевые слова: критическое мышление, высшие учебные заведения, студенты, образование, педагогические условия, интерактивные методы.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bu masala yanada dolzarb tus olmoqda. Zamonaviy ta'lim talabalar faqat bilim egallash bilan cheklanmasdan, balki olgan bilimlarini chuqur tahlil qilish, baholash hamda yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Tanqidiy fikrlash – bu murakkab kognitiv jarayon bo'lib, insonning fikr yuritish qobiliyatini, tahliliy yondashuvini va muammolarga izchil hamda mantiqiy yondashish salohiyatini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola aynan ana shu shart-sharoitlarni ilmiy asosda tahlil qilishga bag'ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash – bu insonning har qanday axborotni o'zlashtirish jarayonida uni avtomatik ravishda qabul qilmasdan, tahlil qilish, asoslash, savol berish va muqobil variantlarni ko'rib chiqish orqali chuqur anglab yetish qobiliyatidir (Paul & Elder, 2014). Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ushbu ko'nikma nafaqat o'quv jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega.

Halpern (2013) ta'kidlaganidek, tanqidiy fikrlash – bu “bilimni avtomatik emas, ongli tarzda qayta ishlash va tahlil qilishga asoslangan fikr yuritishdir”. O'zbekistonlik olimi Odilova (2024) tanqidiy fikrlashning ildizlari



Sharq falsafasida ham mavjudligini, xususan Alisher Navoiy, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlar asarlarida tahliliy yondashuvlar namoyon bo'lganini qayd etadi.

Urinboyev va Abdurahmonov (2024) tanqidiy fikrlashni "ta'lim sifati va talabalar tafakkurining faolligini oshiruvchi asosiy omil" sifatida baholaydi.

Ilmiy adabiyotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi tashkiliy shart-sharoitlarning zarurligi ta'kidlanadi:

- O'quv rejalari mosligi. Omonova (2025) "Tanqidiy fikrlash" va "Metafan" kabi umumiy rivojlantiruvchi fanlarni o'quv rejasiga kiritish orqali ushbu ko'nikmani muntazam shakllantirishni taklif qiladi.
- Interaktiv muhit. Campo va boshqalar (2023) tadqiqotiga ko'ra, talabalarning fikricha, eng samarali usullar – debat, keys-stadi va hamkorlikda o'qitish metodlari hisoblanadi.
- Texnologik vositalar. Ablakulov (2025) esa ingliz tilini o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda onlayn platformalar, analitik matnlar va kreativ yozuv topshiriqlari yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o'quv rejalari va dasturlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darsliklar hamda o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, shuningdek, tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosini OTM talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yorituvchi adabiyotlar, ilmiy maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalari tahlili hamda kuzatuv orqali olingan ma'lumotlar tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, OTMda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy shartlar quyidagilardan iborat:

1. O'quv rejalari va dasturlarni takomillashtirish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan fanlarni (mantiq, tahliliy fikrlash, falsafa) joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o'quv rejalari va dasturlarida tanqidiy fikrlash alohida o'quv natijasi sifatida belgilansa, barcha fanlarda uni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar va metodikalar nazarda tutiladi. Bu esa tanqidiy fikrni tasodifiy emas, tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan, "Ingliz tili" fanida faqat grammatika emas, balki dalillash, muqobil fikr bildirish va matnni tanqidiy tahlil qilish darsning ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Takomillashtirilgan dasturlar quyidagi interaktiv metodlarga asoslanadi:

- Problem-based learning (PBL): talabalar real hayotdagi muammolarni tahlil qiladi;
- Project-based learning: mustaqil tadqiqotlar va ishlanmalarga asoslanadi;
- Debatlar, keys-stadi: fikr yuritish, bahslashish, dalillash ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Bu metodlar tanqidiy fikrlashning asosi bo'lgan tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Yaxshi tuzilgan o'quv rejalari ijtimoiy, texnik va gumanitar fanlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydi. Bunday yondashuv talabalarni turli nuqtai nazardan fikrlashga o'rgatadi, bu esa tanqidiy fikrlashni chuqurlashtiradi.

Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan dasturlarda baholash mezonlari faqat faktik bilim emas, balki mantiqiy asoslanganlik, dalil va misollar orqali fikrni isbotlash, muqobil qarashlarni keltirishni ham o'z ichiga oladi. Bu esa talabalarni yuzaki yod olishdan ko'ra chuqur fikrlashga undaydi.

Shuningdek, takomillashtirilgan dasturlar talabalarni mustaqil tahlil qilishga, tanqidiy savollar berishga, o'z fikrini asoslashga yo'naltiradi. Bu esa nafaqat bilim darajasini, balki fikr yuritish madaniyatini ham oshiradi.

Xulosa sifatida, o'quv rejalari va dasturlarni tanqidiy fikrlash kompetensiyasiga moslashtirish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, asoslangan xulosa chiqarish, muqobil fikrni qabul qilish va dalillarga asoslanish kabi hayotiy va professional ko'nikmalar rivojlanadi.

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, problemali ta'lim, loyiha asosidagi ta'lim, keys-stadiy kabi metodlar orqali talabalar murakkab axborotlarni tahlil qilish, baholash va ularning mohiyatini anglash ko'nikmalarini egallaydilar.

Bugungi kunda talabalar internet, raqamli kutubxonalar va ilmiy bazalar orqali katta hajmdagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga egadirlar. Biroq ushbu axborotlar turli sifat va ishonchlilik darajasiga ega



bo'lganligi sababli, ularni tanqidiy tahlil qilish, solishtirish va asoslangan qarorlar chiqarish zarur bo'ladi. Masalan, bir mavzu bo'yicha ikki qarama-qarshi maqola taqdim etilganda, talabadan qaysi biri ishonchliroq ekanini dalillar asosida aniqlashi talab etiladi.

Multimedia vositalari, xususan video darslar, hujjatli filmlar va podkastlar orqali talabalar turli nuqtai nazarlarni tinglaydi, ko'radi va tahlil qiladi. Bu esa o'z fikrini shakllantirish, boshqalar fikrini baholash, mantiqiy va asosli xulosalar chiqarish jarayonlarini kuchaytiradi.

Google Jamboard, Padlet, Zoom Breakout Rooms, Moodle forumlari kabi interaktiv platformalarda talabalar guruh muhokamalarida faol ishtirok etadilar. Ular o'z fikrini yozma va og'zaki ifodalaydi, boshqalarning fikriga munosabat bildiradi, dalillarni solishtiradi. Bu jarayon tanqidiy savollar berish va tahliliy yondashuvni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Simulyatsiya va virtual muhitlar orqali qaror qabul qilish kompetensiyalari rivojlanadi. Masalan, biznes simulyatsiyalari, tarixiy rolli o'yinlar yoki virtual tajribalar talabalarni real vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga tanqidiy yondashish, oqibatlarni bashorat qilish va asosli qarorlar chiqarishga majbur qiladi.

Raqamli yozuv va fikr bildirish vositalari – bloglar, analitik esselar, digital storytelling (raqamli hikoyalash) kabi topshiriqlar orqali talabalar chuqur tahlil, dalillash va muqobil nuqtai nazarlarni ifoda etishni o'rganadilar.

Sun'iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly, QuillBot va boshqalar) bilan ishlash jarayonida talabalar avtomatik tarzda olingan javoblarni tanqidiy baholash, noto'g'ri yoki noaniq axborotni aniqlash, mantiqiylik va faktik asoslanganlikni tekshirish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa "ko'r-ko'rona qabul qilish" emas, fikr yuritishga asoslangan yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar mustaqil izlanish, axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish, dalillash, o'z fikrini asoslash kabi tanqidiy fikrlashning asosiy elementlarini rivojlantiradi. Shu boisdan, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga to'liq integratsiya qilish talabalar fikr yuritish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

3. Muqobil fikrlashga ochiq akademik muhit

Muqobil fikrlashga ochiq akademik muhit – bu talabalar turli fikr, yondashuv va qarashlarni erkin bildiradigan, bahslashish va shubha qilish imkoniyatiga ega bo'lgan ilmiy-tarbiyaviy muhitdir. Bunday muhit tanqidiy fikrlashni shakllantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ochiq akademik muhitda talabalar turli nuqtai nazarlarni eshitadi, ularni taqqoslaydi, dalillar asosida qaysi fikr haqiqatga yaqinligini aniqlashga harakat qiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning asosiy elementlari – tahlil, sintez va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bunday muhitda talabalar o'z fikrlarini asoslashga majbur bo'ladi. Har qanday da'vo dalil, misol va statistik ma'lumotlar bilan mustahkamlanishi zarur bo'ladi.

Masalan, seminar darslarida "Bu fikrni qanday asoslaysiz?" yoki "Muqobil yechimlar bormi?" kabi savollar tanqidiy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Agar talaba o'z fikrini erkin bildirsa, tanqidga ochiq bo'lsa va xatolarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lsa, u o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqadi, yangilaydi yoki mustahkamlaydi, o'z-o'zini tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa metakognitiv salohiyatni – ya'ni, o'z fikrlash jarayonini anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Aksincha, muqobil fikrga yopiq muhitda talabalar "o'qituvchi aytgandek bo'lishi kerak" degan stereotipga bo'ysunadi. Bunday yondashuv ijodkorlik va mustaqil fikr yuritishga to'sqinlik qiladi. Ochiq muhit esa turlicha yondashuvlarga yo'l beradi, "noto'g'ri" deb baholangan fikrlarni ham muhokama qilish imkonini yaratadi.

Boshqacha fikrlarga bag'rikeng bo'lgan talaba boshqalar fikrini tushunishga intiladi, sabablarini o'rganadi va tanqidiy tahlil qilishni bahslashish emas, balki ilmiy mulohaza yuritish sifatida qabul qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashni "hujum" emas, balki ilmiy muloqot jarayoni sifatida anglashga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, muqobil fikrlarga ochiq akademik muhit talabalarni:

- erkin fikrlashga,
- dalil asosida fikr bildirishga,
- tanqidiy savollar berishga,
- boshqacha qarashlarni tushunishga o'rgatadi.

Shunday muhitda ta'lim olayotgan talaba nafaqat bilim egallaydi, balki fikr yuritish madaniyatiga ega intellektual shaxsga aylanadi.

4. Raqamli vositalardan foydalanish

Raqamli vositalardan foydalanish talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vositalar axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli platformalar (Google, JSTOR, YouTube, Wikipedia, sun'iy intellekt (SI) chatbotlari, onlayn kutubxonalar) talabalarni ko'p manbali, tezkor va farqli sifatidagi ma'lumotlarga olib chiqadi. Bunday axborotlardan foydalanishda talabalar quyidagilarga o'rganadilar:

- axborotni tanqidiy baholash (manbaning ishonchliligi, dalillar kuchi);



- dezinformatsiya va manipulyatsiyani aniqlash;
- o'z fikrini dalillarga asoslab shakllantirish.

Interaktiv platformalar – Google Docs, Padlet, Kahoot, Miro, Quizizz, Moodle, Edmodo, Mentimeter orqali talabalar o'zaro muloqotda bo'ladi, bahs-munozaralarda ishtirok etadi, yozma va og'zaki fikr almashinadi. Bu jarayon talabalar orasida fikr almashish, savollar berish, dalillarni solishtirish va tahlil qilish orqali reflektiv fikrlashni shakllantiradi.

Vizual va tahliliy vositalar, masalan, diagrammalar, xaritalar, infografikalar va video-analizlar orqali talabalar murakkab g'oyalarni raqamli asosda tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa nafaqat ularning tanqidiy fikrlash darajasini, balki abstrakt tushunchalarni tushunish salohiyatini ham oshiradi.

Yozma tahlil vositalari, xususan bloglar, digital portfoliolar, e-jurnallar (Google Sites, Notion, WordPress) yordamida talabalar o'z fikrini yozma ravishda tahlil qiladi, metakognitiv (o'z fikrlashini anglash) darajasini baholaydi va vaqt o'tishi bilan o'z tafakkuridagi o'zgarishlarni kuzatadi. Bu tanqidiy fikrlashning yuqori bosqichi hisoblanadi.

Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali qaror qabul qilish va muqobil yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, virtual biologiya tajribalari, iqtisodiy strategiyalar simulyatsiyasi yoki tarixiy voqealarni qayta sahnalashtirish orqali talabalar real muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Bu kontekstli tanqidiy fikrni rivojlantiradi.

Sun'iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Perplexity) yordamida talabalar avtomatik javoblarni tahlil qiladi, ularning mantiqiy asoslanganligi, ishonchiligi va aniqligini tekshiradi. "Bu ma'lumot qayerdan olingan?", "Dalili bormi?", "Qanday manbaga asoslangan?" kabi savollar orqali talabalar tanqidiy yondashuvni amaliyotda qo'llashga o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, raqamli vositalardan foydalanish:

- axborotni tahlil qilish;
- bahs-munozara yuritish;
- qaror qabul qilish;
- metakognitiv fikrlashni rivojlantirish;
- texnologik vositalar orqali fikrni shakllantirish jarayonlarini faollashtiradi.

Natijada tanqidiy fikrlash chuqur, kontekstual va barqaror shaklda rivojlanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish

Interfaol metodlardan foydalanish – bu talabalarni faol fikr almashishga, muammolarni hal qilishga va muloqotga jalb etishga asoslangan ta'lim yondashuvidir. Tanqidiy fikrlash aynan ana shu komponentlar asosida shakllanadi.

Interfaol metodlarda talaba passiv tinglovchi emas, balki fikr yurituvchi, savol beruvchi va dalil keltiruvchi faol subyektga aylanadi. Bu esa uni o'z fikrini izlash, asoslash va boshqalarning fikrini baholashga o'rgatadi. Masalan, "Debat" metodida talaba har bir da'vosini dalillar bilan mustahkamlashi, muqobil fikrga asosli javob qaytarishi lozim bo'ladi.

Quyidagi interfaol metodlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi:

- Bahs-munozara, rolda o'ynash (role-play): muammoga turli tomondan yondashishni o'rgatadi;
- Suqrotona savol-javob: ketma-ket chuqurlashtirilgan savollar orqali fikrni shakllantiradi;
- Keys-stadi: real hayotiy vaziyatni hal qilishga undaydi;
- "6 ta shlyapa" metodi: masalaga turli nuqtai nazardan yondashishni rag'batlantiradi;
- "Aqliy hujum" (brainstorming), "Fishbone", "Cluster", "Fikrlar xaritasi", "Assotsiativ xarita": yangi g'oyalarni yaratish va ularni tanqidiy baholash imkonini beradi.

Interfaol metodlarda talabalar jamoada ishlaydi, bu esa boshqacha fikrlarni eshitish, ularni tahlil qilish, fikrlar ziddiyatidan xulosa chiqarish imkonini yaratadi. Bunday faoliyat tanqidiy fikrning markaziy jihati – fikrlar ko'lamida yo'nalishni topish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchilarda savol berish madaniyatini rivojlantirish

O'qituvchining savol berish madaniyati – tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi eng muhim omillardan biridir. Tanqidiy fikrlash aynan savol berish orqali boshlanadi.

Yaxshi savol talabani faollikka undaydi, uni o'ylashga, muqobil fikrlar ishlab chiqishga, dalil keltirishga majbur qiladi.

Masalan, "Bu holat nega yuz berdi?", "Qaysi yondashuv samaraliroq?", "Nima asosida bu xulosaga keldingiz?" kabi savollar tanqidiy yondashuvni rag'batlantiradi.

Bloom taksonomiyasi asosida tuzilgan yuqori darajadagi savollar – tahlil, taqqoslash, baholash, sintez kabi kognitiv operatsiyalarni faollashtiradi.

Misol: "Bu matnda muallif nimani yashirmoqda deb o'ylaysiz?" – bu savol oddiy bilimni emas, chuqur tahlil va interpretatsiyani talab qiladi.



O'qituvchi savollar orqali talabani o'z fikrini ifodalashga undaydi, noto'g'ri javobni ham inkor etmasdan, uni tahlil qilishga chorlaydi. Bu esa talabani o'z fikriga javobgarligini, asoslash va himoya qilish salohiyatini oshiradi.

Yaxshi savol – bu “ha/yo‘q” bilan javob berib bo‘lmaydigan, balki izoh va dalil talab qiladigan savoldir. Bunday savollar orqali talaba o'z javobini mustahkam asoslashga intiladi, bu esa fikrning puxtaligini ta'minlaydi.

O'qituvchi qanday savollar bersa, talaba ham shunday fikrlay boshlaydi. Ya'ni, tanqidiy, ochiq va muammoli savollar berilgan taqdirda, talabalar ham o'z-o'ziga savollar berishni o'rganadi.

Masalan: “Men bu ma'lumotni qayerdan bilaman?”, “Qanday dalil bor?”, “Qaysi variant mantiqan to'g'riroq?” kabi o'z-o'ziga savollar – metakognitiv fikrlashni shakllantiradi.

Turli turdagi savollar (nima? nega? qanday? kimga foydali? qayerda muammo?) talabani ko'p yo'nalishda fikrlashini, turlicha qarashlarni tahlil qilishini ta'minlaydi. Bu esa tanqidiy fikr bilan birga muqobil fikrga ochiqlikni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarda savol berish madaniyatining rivojlanishi talabalarni:

- mustaqil fikr yuritishga,
- dalillarga asoslangan mulohaza bildirishga,
- muammolarga yechim izlashga yo'naltiradi.

Bu esa tanqidiy fikrlash kompetensiyasining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik baholash tizimini yangilash

Pedagogik jarayon natijalarini baholash tizimini yangilash – bu o'qitishdan tashqari o'rganishni ham o'zgartirishga xizmat qiluvchi muhim islohot yo'nalishidir. Baholash faqat ball qo'yish vositasi emas, balki tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuchli pedagogik vositadir.

An'anaviy baholash tizimi, odatda, faqat faktlarni yod olishni tekshiradi. Bunday yondashuv tanqidiy fikrlashni rag'batlantirmaydi. Yangi kompetensiyaviy yondashuv asosidagi baholash esa:

- tahlil qilish,
- sintez qilish,
- dalillash,
- xulosa chiqarish,
- muqobil fikrlarni asoslash

kabi kognitiv faoliyat turlarini baholashga yo'naltirilgan.

Yangi baholash shakllari quyidagilardan iborat:

- Formativ baholash: o'quv jarayoni davomida talabani kuzatish, fikrlash jarayonini rag'batlantirish;
- Reflektiv baholash: talabani o'z fikr yuritishini mustaqil tahlil qilishi;
- O'zaro baholash va o'zini baholash: halollik, tanqidiy yondashuv va mulohaza yuritish madaniyatini shakllantirish.

Agar baholash mezonlari aniq belgilangan bo'lsa, talabalar nima asosida baho olinayotganini tushunadilar va o'z fikrlarini shu mezonlarga mos ravishda asoslaydilar.

Masalan: dalil keltirish, mantiqiy izohlash, muqobil fikrlarni ko'rsatish.

Zamonaviy baholash vositalariga quyidagilar kiradi:

- Portfolio: talabani fikrlash rivojini hujjatlashtiradi;
- Loyiha asosida baholash: real muammolar bo'yicha tanqidiy va ijodiy yechimlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Yangi baholash yondashuvida xatolarni aniqlash emas, balki o'rganish uchun imkon yaratish maqsad qilinadi. “Nima noto'g'ri bo'ldi?” degan savol o'rniga “Qanday yaxshilash mumkin?” degan konstruktiv yondashuv qo'llaniladi.

Shunday qilib, baholash tizimi yangilansa:

- talaba faktlar emas, dalillar haqida o'ylaydi;
- to'g'ri javob emas, tahliliy izoh muhim bo'ladi;
- savollarga emas, muammolarga yechim izlaydi.

Natijada baholash tizimi tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi faol pedagogik vositaga aylanadi.

Motivatsion omillarga e'tibor qaratish

Ta'lim jarayonida motivatsion omillar – bu talabalarning o'qishga, fikrlashga, savol berishga va dalillashga ichki tayyorligini shakllantiruvchi psixopedagogik vositadir. Tanqidiy fikrlash aynan bunday ichki qiziqish va faollik asosida rivojlanadi.

Motivatsiyalangan talaba bilimni yod olish emas, uni chuqur tushunishga harakat qiladi. Savollarga “to'g'ri javob” izlash emas, balki muammolarni tahlil qilishga intiladi, o'z fikrini bildirish va himoya qilishdan cho'chi-maydi.

Agar topshiriqlar:

- dolzarb,
- real hayotga yaqin,



- ijodiy yondashuvga ochiq bo'lsa, talabalar ularni jiddiy qabul qiladi va tahliliy yondashuv bilan yechishga harakat qiladi. Motivatsiyaning tanqidiy fikrlashga ta'siri:
 - Talaba: "Bu axborot to'g'rimi?", "Qayerda xato bo'lishi mumkin?", "Boshqacha qarashlar yo'qmi?" kabi savollarni o'zi beradi.
 - O'z fikrini aytgan, dalil keltirgan talaba ijobiy baholansa – tanqidiy savollar berish rag'batlantiriladi.
 - Fikri tinglangan talaba o'zini qadrlangan his qiladi va keyingi safar ham faol ishtirok etishga harakat qiladi. Motivatsion muhitda talaba xato qilishdan cho'chimaydi, o'z savollarini erkin bildiradi, noto'g'ri javob ustida ham fikr yuritishni o'rganadi. Bu esa tanqidiy fikrlashda zarur bo'lgan refleksiya – ya'ni o'z fikrini qayta ko'rib chiqish qobiliyatini shakllantiradi.
- Xulosa qilib aytganda, ta'limda motivatsion omillarga e'tibor qaratish:
- savol berishga,
 - shubha qilishga,
 - dalillashga,
 - mustaqil fikrga ega bo'lishga ichki ehtiyoj uyg'otadi.
- Bu esa tanqidiy fikrlashni boshlovchi va doimiy ravishda mustahkamlovchi kalit omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tanqidiy fikrlash bugungi oliy ta'lim tizimida asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Uni shakllantirish va rivojlantirish uchun zamonaviy, interfaol hamda muqobil fikrga ochiq ta'lim muhitini yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Bunday muhitda talaba faqat bilim egallovchi emas, balki tahlil qiluvchi, asoslovchi, mustaqil xulosa chiqaruvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga o'quv rejalarini moslashtirish, interfaol usullardan foydalanish, baholash tizimini yangilash va motivatsion omillarni hisobga olish kiradi. Aynan mana shunday yondashuv orqali bilimli, mustaqil fikrlovchi, tahliliy qarashga ega bo'lgan zamonaviy mutaxassisni tayyorlash mumkin.

Kelgusida ushbu yo'nalishda tizimli ravishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish, pedagogik tajribalarni umumlashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Pearson Education.
2. Halpern, D. F. (2013). Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. Psychology Press.
3. Urinboyev, A., & Abdurahmonov, R. (2024). Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv usullar. ScienceWeb.
4. Omonova, M. (2025). Meta-fan kursi orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Renaissance Journal.
5. Ablakulov, I. (2025). Tanqidiy fikrlashni ESL darslarida rivojlantirish usullari. Universal Journal.
6. Odilova, M. va Mamatqulova, G. (2024). Tanqidiy fikrning Sharq va G'arbda rivojlanishiga tarixiy-nazariy yondashuv. Scientific Journal.
7. Bolibekova, N. (2025). Xalqaro baholash tizimlarida tanqidiy fikrlashni o'rgatish. ICMS Conference.
8. Otajonova, Sh. (2024). Chet tilini o'qitish kontekstida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.